




№3
2024



ЎЗБЕКСТАН МАМЛЕКЕТЛИК КОНСЕРВАТОРИЯСИ
НОҚИС ФИЛИАЛИ

MUSIQ VA SAN'AT AJOBO DUNYOASI | БЕЎТХИҚ ХУՅՈՒՂ Ի ԽՈՐՈՇԵՐԱ | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍŚÍ

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilmiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI

Saidxonov A.S.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Bu maqola XX asr yani yuz yil avval Avstriyada paydo bo‘lgan biroq qisqa va juda ko‘p ziddiyatlarga sabab bo‘lgan Yangi Vena maktabi va uning asoschilari to‘g‘risidadir. Dunyo musiqa madaniyati tarixi to‘rt, besh asr davomida turli davrlar oqimida ko‘plab rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tganligi haqida so‘z etiladi.

Kalit so‘zlar: Madaniyat, jahon musiqasi, Vena maktabi, klassik musiqa, musiqashunos, kompozitor.

Аннотация: Данная статья посвящена Новой Венской школе, появившейся в Австрии сто лет назад в 20 веке, но просуществовавшей недолго и вызвавшей множество споров, и ее основателям. Говорят, что история мировой музыкальной культуры в разные периоды на протяжении четырех-пяти столетий прошла множество этапов развития.

Ключевые слова: Культура, мировая музыка, Венская школа, классическая музыка, музыковед, композитор.

Annotation: This article is dedicated to the New Viennese School, which appeared in Austria a hundred years ago in the 20th century, but did not last long and caused a lot of controversy, and its founders. They say that the history of world musical culture in different periods over four to five centuries has gone through many stages of development.

Key words: Culture, world music, Vienna School, classical music, musicologist, composer.

Rivojlanayotgan davlatlar qatorida yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli siyosiy va ma’rifiy rivojlanish bosqichlari va strategiyalar hech bir sohani chetlab o‘tayotgani yo‘q albatta. Aytish joizki ana shunday harakatlarning barchasi

davlatni farovon turmush tarzini yaxshilashda, fuqorolarning davlat oldidagi burchi va aksincha hamda, kelajak avlodni yetuk ma'nan boy bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz tomonidan imzolandan 2022-2026-yillar "Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi"da ham yuqorida aytib o'tganimizdek aniq maqsadlarga asoslangan.

Ma'lumki davlatni rivojlanishida madaniyat sohasining o'rnini katta. Madaniyat sohasi o'z o'rnida davlatning asl qiyofasini yoritib unga o'zligini anglashdagi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi doirasida ushbu sohaga qaratilgan e'tibor keng qamrovlidir. Madaniyat va ta'lim sohalarining birgalikdagi azaliy hamkorligini yanada mustahkamlash, soha vakillarini har tomonlama rivojlantirish va rag'batlantirish, milly sifatli kadrlar tayyorlash shular jumlasidandir.

Jahon musiqa madaniyati yurtimizga kirib kelganidan bir necha yuz yillar o'tsinkim bu sohaga hukumatimiz katta hurmat ila munosabat bildirib keladi. Bu o'z o'rnida sohani yurtimizda ham rivoj topishiga xayrixohlik va bag'ri kenglikdan dalolatdir.

Dunyo musiqa madaniyati tarixi to'rt, besh asr davomida turli davrlar oqimida ko'plab rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Ushbu davrlarni va o'sha davr ijodkorlarining ijodini o'rganish tarix va bugungi kundagi musiqa madaniyatini asl mohiyatini anglashda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolaning mavzusi XX asr yani yuz yil avval Avstriyada paydo bo'lgan biroq qisqa va juda ko'p ziddiyatlarga sabab bo'lgan Yangi Vena maktabi va uning asoschilari to'g'risidadir.

"Jahon klassik musiqasi ijodkorlari" yoki "klassik musiqa" deganda albatta Barokko davri (XVI-XVII asrlar musiqasi), vena klassiklari ijodi (XVIII asr) va mashxur romantizm davri (XIX asr) tushuniladi. Biroq ushbu atama XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan Impressionizm va Ekspressionizm davrlarini ham o'z ichiga oladi.

Musiqiy impressionizm birinchi marta Fransiyada Klod Debyussi, Moris Ravel kabi ijodkor foliyatida namoyon bo‘ladi. Musiqiy ekspressionizm Avstriyada, aniqrog‘i, uning poytaxti Vena shahrida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Uning asoschilari Arnold Shonberg, Alban Berg va Anton Vebern. Ushbu kompozitorlar ijodiy jamoasi musiqa tarixiga Yangi Vena maktabi nomi bilan kirib kelishdi.

Yangi Vena maktabi yoki Ikkinchi Vena maktabi nomlari Yangi Vena maktabi namoyondalari tomonidan kelib chiqqan bo‘lib ular Yangi Vena maktabi o‘zining ahamiyatiga ko‘ra "eski Vena maktabi" yani "birinchi Vena klassik maktabi" bilan taqqoslanadigan maktab ekanligini isbotlashni maqsad qilishgan. Vena klassik maktabi ikkinchi Vena maktabi bilan ketma-ket bog‘liqdir va bir vaqtning o‘zida yangilik va zamonaviylikning muhim sifatlariga ega. Shonberg, Berg va Vebernlr o‘zlarini Vena klassik maktabining an‘analari bilan bog‘liqligini bir necha marotaba ta’kidlashgan.

Aslida esa Yangi Vena maktabi ko‘p jihatdan Vena klassik maktabiga qarama-qarshidir. U o‘zining ichki mohiyatiga ko‘ra musiqadagi modernizmning tipik ko‘rinishini ifodalaydi. Yangi Vena maktabining ijodiy vakillari o‘ta sub'ektivizm, yaratilish tasvirlaridan vayronkorlik tasvirlarining ustunligi, milliylik va milliylik tamoyillarini amalda rad etish bilan ajralib turadi.

Yangi Vena maktabining asl umumiy asosi atonalizm bo‘lib, ushbu atama (atonos) Grekchadan olingan bo‘lib “a – inkor qo‘shimcha, tonos – ton yoki tonallik. Umuman olganda ushbu tushunchaga xos asarlarni XIX asr oxirida ko‘rish mumkin biroq, ular aniq bir tonal shaklga asoslanadi. Shonberg esa ushbu atonal musiqani va tonallikni muhim emasligini, uni yo‘qligini birinchilardan bo‘lib e’lon qildi. Shonberg ongli ravishda Venaliklar uning atonal musiqasini qabul qilmasligini, tushunmasligini his qilgan va shunday bo‘lsada bunga qo‘l urdi. Natijada tarixda birinchi marta to‘liq holda kompozitorning fortepiano uchun 3 pyesa opus 11 atonal asari dunyo yuzini ko‘rdi.

Shonberg insonning eshitish qobiliyati ham rivojlanadi va o'zgaradi yani, XVIII asrda dissonanslar juda qo'pol va noohang qabul qilingan bo'lsa, XIX asrga kelib dissonanslar normal qabul qilinib konsonansga tenglashdi, atonal musiqa ham bir kun kelib tabiiy ravishda normal qabul qilinadi deb hisoblagan.

1920-yillarning boshlarida Shonberg atonalizmga asoslanib, o'n ikki ohangli yangi kompozitorlik texnikasi, dodekafoniya usulini ishlab chiqdi, Dodekafoniya grekchadan olingan bo'lib dodeka – **o'n ikki**, ponn – **ton** yani, o'n ikkita o'zaro bog'liq tonlardir. Ushbu zamonaviy kompozitorlik texnikasini dastlab o'zining shogirdlari va izdoshlari tomonidan to'liq qabul qilindi va yevropada keng tarqaldi.

Yangi Vena maktabi musiqasini o'rganar ekanmiz albatta bu hodisani Shonberg va uning shogirdlari ijodida aniq dalillar asosida kuzatamiz va bu izlanish natijalari bizni Shonberg Berg va Vebernlarning ijodini chuqurroq o'rganishga undaydi.

Avstryalik kompozitor, musiqashunos, 200 ga yaqin kartinalar muallifi, rassom, tanqidchi Arnold Shonberg 1874 – yil Venada yevreylar oilasida dunyoga keladi. Uning musiqaga kelishiga avvalam bor onasi sababchi bo'lgan. Shonberg o'zini musiqani mustaqil o'rganuvchi (yani ustozlar ta'limisiz) deya ko'p marotaba ta'kidlagan. Sababi oilaviy sharoitdan kelib chiqqan holda Shonbergda musiqadan ta'lim olish imkoniyati deyarli bo'lmagan. U yoshlik davridan boshlab turli xor jamoalarida operettalarda ishlagan va shu onlarda kompozitorlikga bo'lgan qiziqish paydo bo'lgan.

Shonbergni ijodi tubdan 3 davrga bo'linadi zero mana shunday davrlar kesimida kompozitor ijodini o'rganish uning ijodini asl mohiyatini aniq tushunishga undaydi. Ular:

- 1) **Tonal davr** (1897-1908)
- 2) **Atonal davr** (1909-1922)
- 3) **Dodekafoniya davri** (1923-1951)

Tonal davr Shonberg ijodida o'zining zamondoshlari Rixard Shtraus hamda Gustav Malerlarning ta'siri doirasida romantizm davriga juda hosdir. Ushbu davrda

kompozitor tomonidan bir qancha asarlar yozilgan masalan, sekstet “Prosvetlyonnaya noch” opus 4, aratoriya “pesnya Gorre”, kamer simfoniya opus 9 va torli asboblari uchun 2 ta kvartet shular jumlasidandir. Mazkur asarlar Shonbergning yoshlik davrdagi ya'ni tonal davri ijod namunasi bo'lib u romantizmga hos bo'lgan. Ushbu asarlardagi mavzuiylik va dasturiylik ham romantizm davrida urfga kirgan nozik xisssiyotlar og'ushiga to'yingandir.

XX asr boshlari Shonbergning ijodida o'zi istaganidek katta burilish davri bo'ldi. Shonberg atonal davrga yuqorida aytib o'ganimizdek o'zining fortepiano uchun 3 pyesa opus 11 asari bilan qadam qo'ydi va bu albatta birinchi raqamli, rasmiy tarzda atonal musiqiy asar edi. Kompozitor ushbu asari bilan ilk bor musiqa tarixida atonal musiqa bu revolutsiya emas balki rivojlanishning keyingi bosqichi, ya'ni, xisssiyotlarning yangi ranglarda jilov olishi deya fikr yuritgan. Shonbergning atonal musiqasida dissonanslar yetakchi o'rinda balki umuman, asar boshidan ohirigacha quloqni kesuvchi akkord va tarkiblardan iborat bo'lib, bu yerda konsananslardan deyarli foydalanilmagan. Aytish joizki Shonberg bunday musiqaga behosdan kelmagan, tabiiyki shaxsiy hayotiy masalalar kompozitorni yangi atonal musiqa bastalashga turtki bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Atonal musiqa o'z o'rnida barcha borliq garmonik va shakliy qat'iy qoidalarni inkor qiladi. Musiqada aniq bir garmonik tuzilish, garmonik yechilishlar, kuchli va kuchsiz xisssalarning noodatiy joylashishi, aniq bir kuyni yo'qligi eshituvchiga qo'pol va ma'nosiz yetib borishi tabiiy hol. Biroq musiqa 4 aniq tamoyil asosidadir. Bular registrning barqaror emasligi, (notalarni turli oktavalariga sakrash) dinamika, artikulyatsiya va temp. Shonberg ijodidagi ushbu atonal davr o'z o'rnida musiqiy shakllarning yetarlicha o'zgarishiga (kengayishi yoki qisqartirilishi) olib keldi. Ushbu davrda dastlab kompozitorning fortepiano uchun 6 kichik pyesalar opus 19 asari yozildi. Pyesalar haqiqatdan ham juda kichik bo'lib mazkur asarni kompozitor nafaqat atonal balki atematik asar deb hisoblagan. Opus 19 asarini yozish davomida Shonberg uning yaqin maslahatdoshi, sevimli ijodkori, ijodining muhlisi bo'lgan G.Malerning vafot etganligi xabarini eshitadi

tabiiyki, ushbu asarning oxirgi oltinchi pyesasida motam, tushkunlik xisslarini eshitish mumkin.

Shonberg ijodining atonal davrida turli xil janrlarda ijod qilgan. Misol uchun monodrama “Ojidanie” opus 17, ushbu davrning yorqin vokal asari “Lunniy Perro” opus 21 shular jumlasidandir.

Shonberg ijodidagi so‘ngi davr bu yuqorida aytib o‘tganimizdek dodekafoniya. Uch asarki kompozitorlik musiqiy nazariyasi asaosan ikki lad yani major va minor lادلari bo‘yicha tashkil etildi. Shonberg XX asrda atonal musiqa va uning natijasida yangi musiqa bastalash texnikasini ishlab chiqidi va buni butun dunyoga ovoza qildi. Atonal musiqa Shonbergni holdan toydirdi sababi kompozitor ushbu atonal musiqada deyarli borliq barcha janr va shakllardan foydalanib ijod qildi, ammo, kompozitorning o‘zi bundan yetarlicha qoniqish hosil qilmagan. Buning natijasida Shonberg psixologik inqirozga uchraydi va uning ta’sirida bir necha yil ijod qilishdan to‘xtaydi.

Shundan so‘ng 1923 – yili Shonberg dodekafiniyani, yangi yozuv texnikasini yaratganligini e’lon qiladi. Ushbu yangi texnika birinchi navbatda atonal musiqa bilan bog‘liq bo‘lgan barcha muammolarni yechimi sifatida kirib kelgan. Mazkur 12 tonlik tovush qatori kompozitorga shakllar kesimida aniq bir tuzilmalarni tuzish imkoniyatini berdi. Dodekafiniya davri davomida Shonberg ushbu yangi yozuv texnikasini unikal ekanligini, kelajakda ushbu texnika keng tarqalib ildiz otishi mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Kompozitor bu davrda ko‘plab asarlar yozishga ulgurgan va ushbu davr mobaynida turli xil janrlarni dodekafoniyada sinab ko‘rgan. Birinchi atonal musiqiy asar kompozitor ijodida opus 11 bo‘lgan bo‘lsa, birinchi dodekafon musiqa bu fortepiano uchun syuita opus 25 dir. Kompozitor hayotida ushbu davr ijodining eng yuqori nuqtasi, ko‘plab shogirdlar qurshovida va hayotga bo‘lgan o‘zgacha yondashish davri sifatida tus olgan. Kompozitorning ushbu davrga yani dodekafon musiqaga tegisli asarlari bular, fortepiano va orkestr uchun konsert, septet, kvartet, syuita, variatsiya shular jumlasidandir. Kompozitorning uzoq yillar davomida ustida ish olib borgan

lekin yozib tugatilmagan yagona operasi “Moisey va Aaron” ham mana shu davr ijod namunalariga ta’luqlidir.

Shonberg musiqasi eshituvchida noturgʻunlik tushunmovchilik xislarini keltirib chiqaradi, uning musiqasini tinglab xordiq chiqarish shunga oʻxshash lazzat olish mumkin emas va albatta kompozitorning oʻzi ham bunga intilmagan, Shonberg “musiqa xordiq chiqarish uchun emas balki musiqa ongsizlik sohasiga tegishlidir...” deb hisoblagan. Hayotining oxirigacha Shonberg oʻz fikrida sobit qolgan.

XX asr musiqiy ekspressionizm va yangi Vena maktabining Shonbergdan keyingi oʻrinda turuvchi vakili va uning shogirdi Alban Berg 1885 – yil 9 fevralda san'atsevar, abadiyotga ixlosi baland insonlar oilasida dunyoga kelgan. Berg oʻzidagi musiqiy va adabiy iste'dodni bolalik chogʻidayoq namoyon etgan, ammo tizimli musiqiy ta'lim olmagan. Taxminan 1900 – yilda Berg mustaqil ravishda musiqa bastalashni boshlaydi. 1904–1910–yillarda A.Shonberg rahbarligida kompozitsiyani oʻrgangan va keyinchalik uning eng yaqin doʻsti va hamkori boʻlib qolgan. Keyinchalik esa Berg oʻzini butunlay musiqiy ijodga bagʻishladi. Ijodiy evolyutsiyaning dastlabki bosqichida unga I.Brams, X.Volf, R.Vagner, R.Shtraus, G.Malerning ta'sir katta boʻlgan. Kech romantizmga xos boʻlgan uslub bilvosita uning hayoti davomida saqlanib qolgan. Ammo bu an'ana dunyoning ekspressionistik qarashlari ta'siri ostida tubdan oʻzgardi, bu Shonbergning olib borgan atonal musiqada va undan keyingi yani yozuv texnikasi uslublarida oʻz ifodasini topdi.

Berg oʻzining vokal va cholgʻu asarlarida oʻz davrining tarixiy kataklizmlarini oldindan koʻrishni oʻzida mujassam etgan fojiali dunyoqarash rassomi sifatida namoyon boʻladi. U yuksak goʻzallik va maʼrifatga erishgan holda eng nozik, nafis ruhiy harakatlarni yetkazishga intildi va shu bilan birga inson ruhiyatining yashirin, qorongʻu tomonlarini yani, yod gʻoyalarga berilib ketish, manik hayajon, telbalik, oʻlim azobi kabi xislarni ochib berdi. Haddan tashqari hissiy zoʻriqishning qisqa daqiqalarida Berg musiqasi naturalizm estetikasiga

yaqinlashgan. Bergning aksariyat asarlari raqamlashgan, avtobiografik bo‘limlar, alifbo, raqamli va grafik simvolizm bilan ajralib turadi. Ushbu noodatiy tarkib qatlami to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda va jonli tasvirlar bilan uyg‘unlashib an’anaviy janrlarning semantikasi asosida alohida hajmga ega bo‘ladi.

Bergning ijodiy merosi boy bo‘lmasada kompozitor deyarli barcha janrlarda asarlar yozgan. Kompozitorning 2 opera, skripka va orkestr uchun konsert, fortepiano uchun sonata, orkestr uchun pyesa, torli kvartet va syuita kabi asarlari mavjud.

Berg yangi vena maktabi kompozitorlari orasida alohida o‘rin tutib, mazkur maktabning yetakchi vakillari hamda targ‘ibotchisi bo‘lgan. Bergning kelib chiqishi va tabiatiga nisbatan ustozining yani Shonbergning ekstatik mistisizmi, zamondosho do‘sti Vebernning ratsionalistik abstraksiyasi ham unga xos emas edi. Berg ijodining asosiy mohiyati ko‘proq insonparvarlik, hayotiylik, hissiy jihatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettiriladi. Berg obrazlarining o‘ziga xosligi mavjud janrlardan keng foydalanish bilan ajralib turadi. Berg 20 dan ortiq adabiy asarlar muallifi bo‘lib, unda u o‘z qarashlarini asoslab bergan va yangi Vena maktabi kompozitorlari ijodini targ‘ib qilgan.

Yangi Vena maktabining keyingi asoschi vakili Shonbergning shogirdi, kompozitor va dirijyor Anton Vebern 1883 – yil 3 dekabr avstriyada injenerlar oilasida dunyoga keladi. Otasi injener, vazirlik rasmiysi, onasi esa musiqaga ixlosi baland bo‘lgan xonimlardan edi. Vebern yoshlik davrida Vena shahrida yashagan va Klagenfurtdagi (Karintiya) o‘rta maktabda o‘qigan. 1895 – yildan boshlab u musiqa bilan jiddiy shug‘ullanishni boshlaydi, fortepiani va violonchel asboblarida chalishni o‘rganadi. O‘rta maktabni tugatgach, 1902–1906–yillarda Gvido Adler rahbarligida Vena universitetida musiqashunoslik bo‘yicha tahsil oldi. 1904–1908 yillarda u Arnold Shonbergdan bilan kompozitsiyani o‘rganadi va aynan mana shu davr uning shaxsiyati va ijodining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko‘rsatadi. Shonberg sinfida Vebern uning yaqin do‘sti bo‘lgan kompozitor Alban Berg bilan tanishadi

1908–yildan Vebern Avstriya va Germaniya shaharlarida, shuningdek Pragada opera va simfonik orkestr dirijyori sifatida faoliyat yuritadi. Vebern Vena ishchi qo‘shiqchilar jamiyatiga rahbarlik qilgan. 1928–1938–yillarda Avstriya radiosining dirijyori, Avstriyada natsistlar rejimi o‘rnatilgandan keyin bu lavozimdan chetlatilgan.

Arnold Shonbergning shogirdi va davomchisi bo‘lgan Vebern, yangi Vena maktabi mohiyati tamoyillarini eng yuqori darajagacha olib bordi. U o‘z kompozitsiyalarida dodekafoniya va seriya usullaridan foydalangan. Uning musiqasi ekstremal aforizm, ixchamlik, lakonizm, musiqiy ifoda vositalarining tejamlorligi va konsentratsiyasi, shuningdek, musiqiy obrazlarning qat’iyligi, yuksakligi va realligi bilan ajralib turadi. Haddan tashqari tovushli nafislik Vebern musiqasida qattiq konstruktiv tuzulish va mavhum fikrlash bilan uyg‘unlashgan.

Vebern dastlabki ijod namunalari - 5 ta ruhiy qo‘shiq opus 15, lotin yozuviga 5 ta kanon, torli trio, kamer orkestr uchun simfoniya, 9 cholg‘u uchun konsert, “Ko‘z nuri” kantatasi, yagona opus raqami bilan belgilangan fortepiano uchun variatsiyalar op. 27 (1936). Opus 17 asridan boshlab Vebern yangi yozuv texnikasi dodekafoniyada asarlar yozishni boshlagan.

Vebern san’atining majoziy dunyosi kundalik musiqa, oddiy qo‘shiq va raqslardan uzoqdir, u murakkab va g‘ayrioddiydir. Uning badiiy tizimining asosini dunyoning uyg‘unligi tasviri tashkil etadi. Veberning axloqiy kontseptsiyasi haqiqat, ezgulik va go‘zallikning yuksak g‘oyalariga asoslanadi. Vebern estetikasi axloqiy qadriyatlarga asoslangan bo‘lib muhim mazmunga qo‘yiladigan talablarni (bunda bastakor an’anaviy diniy elementlarni ham o‘z ichiga oladi) ideal jilo va badiiy shaklning boyligini birlashtirgan.

O‘zining musiqiy izlanishlarida Vebern Yangi Vena maktabining eng jasur ijodkari sifatida gavdalandi u Berg va Shonbergdan ancha oldinga o‘tib ketdi. XX asrning ikkinchi yarmida musiqaning yangi tendentsiyalariga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi Vebernning badiiy yutug‘i edi. P.Bulez Vebernni “kelajak musiqasining yagona ostonasi” ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Veberning badiiy olami musiqa

tarixida yorug‘lik, poklik, axloqiy mustahkamlik, bardavom go‘zallik g‘oyalarining yuksak ifodasi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boer B.H van. Historical dictionary of music of the Classical period. Lanham, 2012.
2. Yakubov B.R. “Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti” fanidan ma’ruzalar matni. Farg‘ona. 2005-yil
3. Левик Б. История зарубежной музыки. М. 1980
4. Кремлёв. Ю. А. "Й. Гайдн". Очерк жизни и творчества. М. 1972
5. Прохорова И. Музыкальная литература зарубежных стран. М. 1985 г.
6. Abdullo, Saidkhonov. "The Concerto-Virtuoso Etude in the Work of Franz Liszt." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 2.3 (2023): 11-16.
7. Saidxonov, A. "ROBERT SHUMAN IJODINING SHAKLLANISHI VA MOHIYATI." Вестник музыки и искусства 1.2 (2023): 52-58.
8. Ogli, Abdullo Saidkhonov Sadrullo. "Prospects for the Development of Culture in Uzbekistan." International Journal on Integrated Education 3.7: 51-53.
9. Abdullo, Saidkhonov. "The polyphonic genre in the work of Rodion Shchedrin." Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 1 (2022): 146-149.
10. Saidkhonov, Abdullo. "The Introduction and Popularization of the Era of Romanticism." Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science 4 (2023): 142-147.
11. Abdullo, S. (2022). GENRE OF PIANO ETUDE MAIN STAGES OF EVOLUTION. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 1(4), 175-179.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍNDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABINÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODELÍ.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQIWSHILARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPA AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181